



FAN, TA'LIM VA AMALIYOT INTEGRATSIYASI

ISSN: 2181-1776

SHODIYEVA M.J.¹

¹ Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), Qashqadaryo viloyat XTXQTMOHM Maktabgacha, boshlang'ich va maxsus ta'lim kafedrası mudiri

XALQARO TAJRIBALAR ASOSIDA O'QUVCHILARNING O'QISH SAVODXONLIGINI RIVOJLANTIRISH IMKONIYATLARI

Annotatsiya. Maqolada o'qish turlari, shakllangan o'qish mahoratining ikkita asosiy tarkibiy qismi, matn bilan aloqa qilish holatlari haqida batafsil bayon etilgan. Shu bilan birga o'quvchilarning o'qish savodxonligi, matnni o'qish va tushunish darajasini aniqlash, PIRLS xalqaro tadqiqoti asosida o'quvchilarning o'qish savodxonligini rivojlantirish masalalari ham yoritilgan.

Tayanch so'zlar: PIRLS tadqiqoti, o'qish savodxonligi, o'qish texnikasi, adabiy kitobxonlik, matnning mazmuni, til xususiyati, tuzilishi.

Аннотация. В статье подробно описаны типы чтения, две основные составляющие формируемых навыков чтения, случаи общения с текстом. При этом освещаются вопросы грамотности чтения, определения уровня чтения и понимания текста, развития читательской грамотности студентов на основе международного исследования PIRLS.

Ключевые слова: исследование PIRLS, грамотность чтения, техники чтения, литературное чтение, содержание текста, языковые особенности, структура.

Annotation. The article describes in detail the types of reading, the two main components of the formed reading skills, the cases of communication with the text. At the same time, the issues of reading literacy, determining the level of reading and comprehension of the text, the development of students' reading literacy on the basis of the international study PIRLS are also covered.

Keywords: PIRLS research, reading literacy, reading techniques, literary reading, text content, language features, structure.

Kirish (Introduction). Mamlakatimizda ta'lim tizimini isloh qilishning yangi bosqichida o'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini davlat ta'lim standartlari asosida shakllantirish hamda ilg'or xorijiy tajribalar, xalqaro mezon va talablar asosida baholash tizimini takomillashtirish muhim ahamiyatga egadir. Ayni paytda, zamonaviy dunyo amaliyoti matnni tushunish mezoniga qaratilgan. Ko'p mamlakatlarda muntazam ravishda o'tkaziladigan o'qish ko'nikmalarini shakllantirish bo'yicha topshiriqlar o'qish savodxonligi mezoniga asoslanadi, bu "insonning yozma matnlarni tushunishi va ular ustida fikr yuritish, o'z maqsadlariga erishish, bilim va imkoniyatlarni rivojlantirish uchun foydalanishi, faol ishtirok etish qobiliyati" sifatida shakllantiriladi.

PIRLS tadqiqotlari doirasida turli ta'lim tizimiga ega bo'lgan davlatlarning 4-sinf bitiruvchilarining o'qish sifati va o'qilgan matnni tushunish darajasi o'rganiladi. Bu tadqiqotlarga 4-sinf o'quvchilarining tanlanishi shu bilan e'tiborliki, aynan o'qishning to'rtinchi yilida o'quvchilar o'qishning yuqori darajasiga ega bo'lishi, ularning keyingi ta'limda bilimni egallash qobiliyatini shakllantirish va shu orqali hozirgi zamonga muvaffaqiyatli moslashuviga yordam beradi.

Mazkur tadqiqot o'quvchilarning og'zaki va yozma nutqini o'stirish, kitobxonlik madaniyatini rivojlantirish, ularning mustaqil va ijodiy fikrlashini kengaytirishga

yo'naltirilgan bo'lib, o'quvchilarning bu tadqiqotda ishtirokini ta'minlash uchun quyidagi vazifalarni amalga oshirish maqsadga muvofiq hisoblanadi:

- o'quvchilarning yozma va nutq savodxonliklarini oshirish bo'yicha ilg'or milliy va xalqaro tajribalarni joriy etish;
- o'quvchilarning o'qish fanidan xalqaro tadqiqotlarga tayyorgarlik ko'rish yuzasidan metodik tizimni yaratish;
- o'quvchilar mustaqil ta'lim olishlari uchun elektron shakldagi ta'limni rivojlantirish, unda o'qish fanidan xalqaro tadqiqotlar bo'yicha savollar bazasini yaratish hamda boyitib borish;
- o'quvchilarning o'qish fanidan xalqaro tadqiqotlarga tayyorgarlik ko'rish uchun mustaqil ta'limni joriy etish.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili (Literature review). O'quvchilarning o'qish savodxonligi, yaxshi o'qish malakalarini shakllantirish muammosi pedagogik jarayonning eng muhim muammolaridan biri bo'lib kelgan. G.S.Kovaleva, E.A.Krasnovskiy, P.P.Blonskiy, D.B.Elkonin, N.A.Menchinskaya, L.Slavina, S.M.Trombach, T.G.Egorov, G.N.Kudina, G.A.Tsukerman kabi ko'plab olimlar boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'qish faolligini rivojlantirish muammolari bilan shug'ullanishgan. Ushbu muammolar ko'plab xorijiy tadqiqotchilar M.Koul, J.Morton va boshqalar tomonidan ham ko'rib chiqilgan. Respublikamizda boshlang'ich sinf o'quvchilarini ona tili darslarida mustaqil fikrlashga o'rgatish masalalari A.Y.Bobomurodova, R.Ibragimov, Sh.U.Nurullayeva, A.Q.Nisanbayeva, M.Z.Hamdama, innovatsion ta'lim sharoitida boshlang'ich sinf o'quvchilarining nutq madaniyatini shakllantirish metodikasi U.A.Masharipova, umumta'lim maktablarining yuqori sinf ona tili darslarida o'quvchilarni ijodiy fikrlashga o'rgatish masalalari N.G.Alovuddinova, T.U.Ziyodova, O.Oxunjonova, M.Saidov, N.X.Sattorova, R.G.Safarova, X.Q.Shoyardonov, Sh.J.Yusupova, N.A.Qosimova kabilarning ilmiy tadqiqotlarida o'z aksini topgan.

Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology). PIRLS –bu turli ta'lim tizimiga ega bo'lgan davlatlarda kitobxonlik sifati monitoringini tadqiq qilishdir. Turli

davlatlardagi boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'qish sifati va matni tushunish darajasini, shuningdek, har xil davlatlar ta'lim tizimidagi o'zgarishlarni taqqoslash va namoyon qilish imkonini beruvchi tadqiqot metodlaridir. Tadqiqot jarayonida darsda o'quvchilar tomonidan eng ko'p qo'llaniladigan o'qishning quyidagi ikki turi o'rganiladi [2]:

1. Adabiy kitobxonlik malakasini egallash maqsadidagi o'qish.
2. Mazmunni tushunish va amalda foydalanish maqsadidagi o'qish.

Badiiy va ilmiy-ommabop matnlarni o'qishda o'qish ko'nikmalarining quyidagi to'rt guruhi baholanadi:

1. Aniq ko'rinishda berilgan ma'lumotni topa olish.
2. Xulosalarni shakllantirish.
3. Ma'lumotlarni umumlashtira olish.
4. Matnning mazmuni, til xususiyati, tuzilishini tahlil qilish va baholay olish.

PIRLS yosh o'quvchilarning sinfda va sinfdan tashqari o'qishning ikkita keng qamrovli maqsadiga qaratilgan. Bular badiiy tajriba orttirish hamda ma'lumot olish va ulardan foydalanish uchun o'qishdir. Yosh o'quvchi uchun o'qish savodxonligining har ikki maqsadi ham muhim hisoblanadi. Shuning uchun PIRLS har bir o'qish turini baholashda matnlarni teng bo'lishni asosiy maqsad qilib olgan.

Hozirgi vaqtda PIRLS ta'rifiga ko'ra, o'qish savodxonligi – jamiyat tomonidan talab qilinadigan va inson tomonidan qadrlanadigan yozma til shakllarini tushunish va ulardan foydalanish, shuningdek, matnlardan turli shakllarda ma'no hosil qila olish qobiliyatidir [2].

Ilmiy manbalarda “O'qish savodxonligi” atamasiga quyidagicha ta'rif berilgan: O'qish savodxonligi–insonning yozma matnlarni tushunishi va undan foydalanishi, ular haqida fikr yuritish va maqsadlariga erishish, bilim va imkoniyatlarini kengaytirish, ijtimoiy hayotda ishtirok etish uchun o'qish bilan shug'ullanish qobiliyati.

G.S.Kovaleva, E.A.Krasnovskiy o'z tadqiqotlarida o'qish savodxonligi –odamning yozma matnlarni anglash va ularda aks ettirish, o'z mazmunidan o'z maqsadlariga

erishish, bilim va imkoniyatlarni rivojlantirish, jamiyatda faol ishtirok etish uchun foydalanish qobiliyatini tushunishni taklif qiladi [1]. Savodxonlik soʻzi oʻquvchilarning oʻqishni oʻzlarining keyingi rejalarini amalga oshirish vositasi sifatida oʻzlashtirishlarida muvaffaqiyatni anglatadi: uzluksiz taʼlim, mehnatga tayyorgarlik, mehnat va ijtimoiy hayotda ishtirok etish.

Oʻqish savodxonligi darajasi boshlangʻich sinf bitiruvchilarining oʻqish mustaqilligining sifat xususiyatlari bilan bogʻliq.

Yuqori daraja. Oʻqish savodxonligi oʻquvchilarning keyingi taʼlim bosqichida oʻqishga tayyor ekanligini bildiradi. Bunday oʻquvchilar deyarli oʻzlarining nutqi, dunyoviy tajribasi va bilimlaridan tashqariga chiqmaydigan badiiy hamda axborot matnlarining mazmunini tushunish, anglash uchun deyarli yordamga muhtoj emaslar. Yuqori darajadagi oʻquvchilar yozma ravishda yetkazilgan yangi maʼlumotlar, fikrlar, tajribalar yordamida oʻzlarining bilim va koʻnikmalarini kengaytirish va oʻzgartirishga imkon beradigan oʻqish qismlarini oʻzlashtirishga tayyor.

Oʻrtacha daraja. Matnlarni tushunish oʻqish asoslarini hali toʻliq oʻrganmagan oʻquvchilar uchun odatiy holdir. Matnli xabarlarini oʻqish va oʻz qadriyatlarini rivojlantirish uchun ularning barchasiga yordam kerak. Bu oʻzlarining tajribalariga zid boʻlmagan matnli xabarlarini tushunishda yordam beradi. Shu bilan birga hayot tajribasi va dunyoqarashlari oʻzlarining tajribalaridan ajralib turadigan suhbatdoshlar bilan yozma aloqa va hamkorlikni rivojlantirishga yordam beradi.

Past daraja. Matnlarni tushunish oʻquvchilarga insonning his-tuygʻulari, fikrlari va bilimlari haqida yozma shaklda oʻz-oʻzini tarbiyalash uchun foydalanishda oʻqituvchining yordamini qabul qilishiga imkon bermaydi.

Mutaxassislar taʼkidicha, shakllangan oʻqish mahorati kamida ikkita asosiy tarkibiy qismni oʻz ichiga oladi:

- oʻqish texnikasi (soʻzlarni toʻgʻri va tez anglash hamda talaffuz qilish);
- matnni tushunish.

Ma'lumki, ikkala komponent ham bir-biri bilan chambarchas bog'liq. Shu bilan birga, o'qish mahoratini shakllantirishning dastlabki bosqichlarida uning texnikasiga, keyingi bosqichlardamatni tushunishga katta ahamiyat beriladi. O'qish faoliyatini o'zlashtirishning sharti bu o'qish usullarini, matnni semantik qayta ishlash usullarini bilish, o'z-o'zidan rivojlanmasligi kerak bo'lgan ma'lum ko'nikma va qobiliyatlarga ega bo'lishdir [4].

Yuqoridagilardan kelib chiqib, matn bilan aloqa qilish holatlarini quyidagicha belgilash mumkin:

- shaxsiy maqsadlar uchun o'qish (o'zingiz uchun) –shaxsiy maktublarni, badiiy adabiyotlarni, tarjimai hollarni, ilmiy-ommabop matnlarni va boshqalarni o'qishni o'z ichiga oladi;
- jamoat maqsadlarida o'qish –rasmiy hujjatlarni, jamoat manfaatlari uchun barcha turdagi ma'lumotlarni o'qishni va boshqalarni o'z ichiga oladi;
- “ish” maqsadlarida o'qish –(ish jarayonida, ish joyida) o'qish uchun ko'rsatma matnlarini (qanday qilish kerak) va boshqalarni o'z ichiga oladi;
- ta'lim uchun o'qish –o'quv adabiyotlari va ta'lim maqsadida ishlatiladigan matnlarni o'qishni o'z ichiga oladi.

Tahlil va natijalar (Analysis and results). Yuqoridagilardan ko'rinadiki, “O'qish savodxonligi” atamasi o'qish tezligini tekshirishni emas, balki “savodli o'qish”ni anglatadi. Unga ko'ra, o'quvchi mantlarni tushunishi, ularning mazmunini mushohada qilishi va baholay olishi, o'z fikrini bildira olishi zarur. O'quvchilarga turli matnlar taqdim etiladi: badiiy asarlardan parchalar, biografiyalar, shaxsiy xatlar, hujjatlar, gazeta va jurnallardagi maqolalar, yo'riqnomalar, reklama e'lonlari, geografik kartalar va boshqalar. Ularda axborot turli ko'rinishlarda aks etadi: diagramma, rasm, xarita, jadval, chizma va hokazolar.

Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqib, o'quvchilarning mantlarni tushunishi, ularning mazmunini mushohada qilishi va baholay olishi, o'z fikrini bildira olishi, mustaqil va ijodiy fikrlashiga doir o'quv va mustaqil topshiriqlarni ishlab chiqish orqali ularning

PIRLS baholash tadqiqotiga tayyorgarligi va ishtirokini ta'minlash mumkin. Umumta'lim muassasalarida xalqaro tadqiqotlar amaliyotiga asoslangan holda boshlang'ich ta'lim sifatini baholashga erishishda o'qituvchi o'quv jarayoniga kompleks tayyorgarlik ko'rishi, o'quvchilarning o'qish savodxonligini baholashga doir topshiriqlarni ishlab chiqishi va o'quv jarayonida qo'llashi muhim hisoblanadi. Bunda o'quv predmetining o'ziga xos jihatini, mashg'ulot o'tiladigan joy va sharoitni, eng asosiysi, o'quvchilarning imkoniyati, ehtiyoji, hamkorlikdagi faoliyatini e'tiborga olish zarur. Bu o'rinda o'qituvchi ish faoliyatining natijaviyligi bevosita uning kasbiy tayyorgarlik darajasiga bog'liqdir. Har bir o'qituvchi dars jarayonini loyihalashda xalqaro baholash tadqiqotlari talablari asosida o'quv topshiriqlarini ishlab chiqishi va amalda foydalanishi muhim ahamiyat kasb etadi.

Xulosa va takliflar (Conclusion/Recommendations).

Tavsiyalar. O'qituvchilarni ta'lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro loyihalarni amalga oshirishga yo'naltirish uchun quyidagitavsiyalar beriladi:

- o'quvchilarni xalqaro baholash tadqiqotlariga tayyorlash orqali intellektual rivojlantirish jarayoni o'ziga xos pedagogik shart-sharoitlar va didaktik vositalar bilan ta'minlangandagina kutilgan samaradorlikka olib keladi. Bunday didaktik jarayon o'zining yaqin va uzoq maqsadlariga ega bo'lib, bu maqsadlarga erishish uchun muayyan didaktik vositalardan foydalanish taqozo etiladi.

- o'quvchilarni xalqaro baholash tadqiqotlariga tayyorlash orqali intellektual rivojlantirishda o'qituvchi o'quv-biluv jarayonining boshqaruvchisi sifatida alohida o'rin egallab, mazkur jarayonning demokratiya va insonparvarlik tamoyillari asosida tashkil etishini ta'minlashi lozim.

- o'quvchilarni xalqaro baholash tadqiqotlariga tayyorlash, bu orqali o'quvchilarning mustaqil va ijodiy fikrlashi, intellektual jihatdan samarali rivojlantirish uchun ularning mustaqil, kreativ va intellektual faoliyat ko'rsatishlari hamda o'z faoliyatlari natijalarini baholashlariga alohida e'tibor qaratish muhimdir.

- o'quvchilar uchun darsda va darsdan tashqari mashg'ulotlarda foydalanish uchun xalqaro baholash tadqiqotlari talablari asosida topshiriqlar tizimini ishlab chiqish

lozim. Yoki har bir sinf va fan bo'yicha bunday topshiriqlarni o'zida mujassamlashtirgan alohida o'quv qo'llanmalarini nashr ettirish maqsadga muvofiqdir.

- o'quvchilarni xalqaro baholash tadqiqotlariga tayyorlashning muhim shartlaridan yana biri ta'lim jarayonida erkin, ijodiy muhit yaratishdir. Bunday muhitda bilim oladigan o'quvchilar o'z fikrlarini erkin ifodalash va imkoniyatlarini turli yo'nalishlarda sinab ko'rish imkoniyatiga ega bo'ladilar.

- loyihalash va tadqiqotchilik metodlari, muammoli ta'lim, loyihalash, hamkorlikda o'qitish, shaxsga yo'naltirilgan va rivojlantiruvchi hamda modulli ta'lim texnologiyalaridan ta'lim jarayonida foydalanish xalqaro baholash tadqiqotlariga tayyorgarlik ishlarining sifat va samaradorligini ta'minlaydi;

- o'qitishning dars, darsdan tashqari ishlar, sinfdan tashqari mashg'ulotlar shakllaridan samarali foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi;

- PIRLS tadqiqotida o'quvchilarning o'qish savodxonligiga qo'yilgan talablardan, ya'ni o'qish savodxonligining maqsadi va tushunish jarayonlaridan kelib chiqqan holda, darslikdagi, sinfdan tashqari o'qish uchun foydalanilayotgan adabiyotlardagi matnlar yoki gazeta va jurnallarda keltirilgan ma'lumotlar asosida o'quvchilar uchun topshiriqlar tayyorlash va o'qish savodxonligini oshirish kutilgan natijani beradi;

- ta'lim jarayonida mantiqiy savol-topshiriqlardan ko'proq foydalanish o'quvchilarning o'quv-bilish faoliyatini faollashtiradi.

Taklif. O'quvchilarni xalqaro baholash dasturlariga tayyorlash uchun dastlab bu jarayonga mas'ul bo'lgan pedagog xodimlarning xalqaro baholash dasturlariga tayyorgarlik ko'rish va amaliyotga joriy etish yuzasidan kompetentligini rivojlantirish muhim hisoblanadi. Bu kabi vazifalarni PISA, TIMSS va PIRLS kabi xalqaro baholash dasturida ishtirok etib, yuqori natijalarga erishayotgan ilg'or va rivojlangan davlatlar tajribasini o'rganish va amaliyotga joriy etish, nazariy materiallarni kompetentlik va ijodiy fikrlashni baholashga qaratish, o'quvchilarning natijalarini doimiy tahlil qilib borish, mashg'ulotlar mazmunini tadqiqotlarga tayyorgarlikka yo'naltirish, dars jarayonida fanlararo integratsiyani ta'minlash, hayotiyligi va amaliy ahamiyati yuqori, zamonaviy to'garak mashg'ulotlarini yo'lga qo'yish, o'quvchilarning ona tili,

matematika va tabiiy fanlardan xalqaro baholash dasturlariga tayyorgarlik ko‘rishi, mustaqil ta’lim olishi uchun metodik materiallar yaratish va amaliyotda tatbiq etish orqali erishish mumkin.

Mutaxassislar ta’kidicha, xalqaro tadqiqot topshiriqlari yetuk tajribaga ega bo‘lgan xalqaro ekspertlar tomonidan ishlab chiqilgan bo‘lib, bunga o‘xshash topshiriqlarni ishlab chiqish uchun tizimli va maxsus bilim talab etiladi. Xalqaro tadqiqot topshiriqlariga qo‘yiladigan talablarga rioya qilmasdan tuzilgan topshiriqlar o‘quvchilarga yordam berish o‘rniga, ularni chalg‘itib qo‘yishi ham mumkin. Shuning uchun xalqaro tadqiqot sinovlariga o‘quvchilarni tayyorlash jarayonida, asosiy e’tiborni alohida olingan xalqaro tadqiqot topshiriqlarini yechishga emas, balki ularni va ularga o‘xshagan topshiriqlarni yechish uchun kerak bo‘ladigan o‘quvchilarning umumiy tayyorgarlik darajasini oshirishga qaratish maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Xulosa shuki, o‘qituvchilarni o‘quvchilarning o‘qish savodxonligini baholash sohasidagi xalqaro loyihalarni amalga oshirishga yo‘naltirishda o‘quvchilarning yozma va nutq savodxonliklarini oshirish bo‘yicha ilg‘or milliy va xalqaro tajribalarni joriy etish, o‘quvchilar mustaqil ta’lim olishlari uchun elektron shakldagi ta’limni rivojlantirish, unda o‘qish fanidan xalqaro tadqiqotlar bo‘yicha savollar bazasini yaratish hamda boyitib borish, o‘quvchilarning o‘qish fanidan xalqaro tadqiqotlarga tayyorgarlik ko‘rish yuzasidan metodik tizimni yaratish, o‘quvchilarning o‘qish fanidan xalqaro tadqiqotlarga tayyorgarlik ko‘rish uchun mustaqil ta’limni joriy etish kabi vazifalarni amalga oshirish muhim hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Г.С.Ковалева, Э.А.Красновский. Новый взгляд на грамотность. По результатам международного исследования. PISA-2000. М.: Логос, 2004.

2. Xalqaro tadqiqotlarda boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining o‘qish savodxonligini baholash / (Boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari, metodistlar va soha mutaxassislari uchun metodik qo‘llanma) U.N.Tashkenbayevning umumiy tahriri ostida. – T.: Sharq, 2019. – 91 b.



3. Xalqaro tadqiqotlarda o‘quvchilarning o‘qish savodxonligini baholash (Ona tili va adabiyot fani o‘qituvchilari, metodistlar va soha mutaxassislari uchun metodik qo‘llanma) «Sharq» nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi Bosh tahririyati. Toshkent – 2019.

4. <https://algoritm-centr.ru/uz/literature/kak-nauchit-rebenka-chitat-po-slogam-v-domashnih-usloviyah-sovety-uchitelya.html>